- The development of measures for effective use of farms and residential estates, systematic organization of crop planting, and increase in the volume of production, and increase the volume of preferential loans to them;

- Using all available opportunities to increase exports while fully satisfying domestic demand in the region and moving to the principle "Each enterprise must export its products"

- To increase the volume of production by 10 times, paying great attention to sectors such as beekeeping, ostrich breeding, and cocoon breeding, to fully utilize the opportunities in forestry

- The development of industries based on local opportunities in rural settlements;

- The development of the regional infrastructure - to speed up the delivery of goods from one place to another, to increase the mobility of people. At the same time, providing people with drinking water and electricity, with the wide use of green technologies. These, in turn, serve to get a high income for the population;

- To scientifically study the best practices of developed countries to reduce poverty in the region, including the experience of China, and to develop prospects for its application in the region;

- The creation of conditions for non-stop supply of regions with guaranteed electricity due to reconstruction of existing enterprises providing electricity, construction of new ones and gradual transition to the use of solar batteries;



- The improving the system of providing medical services to the population, increasing their medical culture;

- To further improve the quality and content of the educational system in educational organizations, to strengthen the material and technical base of local educational institutions. Accelerating vocational training of the population, especially young people, and allocating enough funds from the state for this every year. In this regard, if entrepreneurs operating in the region prepare a specialist for themselves, launch a mechanism of state support for such entrepreneurs.

- Further development of measures aimed at providing employment, education, vocational training, career orientation of women in the province and thereby increasing their financial capabilities;

- attracting unemployed citizens to temporary or permanent activities in areas of high demand during the crisis;

According to the economic direction:

- increasing the share of services in the gross domestic product by attracting foreign investments in the development of all service areas, including insurance, consulting, engineering, auditing, evaluation services;

- in improving the regional structure of the service networks of the region, taking into account the specific features of the historically established system in the regions, the specialization of services, ensuring the proximity of the service facilities to the places of residence of the population and increasing their types, as well as to the population to improve the provision of social and household services, to create favorable conditions for them to live happily and relax;

- revitalizing promotional activities and providing them with business consulting services for the purpose of forming entrepreneurial skills among the population;

- the development of a system of social security guarantees, including unemployment insurance and workers' compensation;

- to strengthen promotion and support of entrepreneurship among the population as the most effective way to reduce poverty in the region;

- increasing the production of exportable products based on the support of small business and private entrepreneurship through the allocation of preferential loans in foreign and national currency. Directing loans provided by the bank to the purchase of the most modern equipment and technologies that enable the production of high-quality and competitive products;

- speeding up the implementation of the "20 thousand entrepreneurs - 500 thousand qualified specialists" program in the region, developed at the initiative of President Sh.M. Mirziyoyev. Participation in the program is voluntary. A total of \$1 billion will be allocated to the program in 2023-2024. Based on these funds, the entrepreneur will be given a loan at a lower interest rate and for a longer period of time, depending on the fact that he will train a member of a poor family in a profession and make him work. The entrepreneur's costs of organizing and equipping a "practical monocenter" and vocational training will be fully covered.

The entrepreneurs participating in the program are given special tax benefits. In particular, if at least 20 percent of poor family members are employed for a year, they will be exempt from property and land taxes. The social tax rate will be reduced by 2 times for



entrepreneurs who pay up to 5 million soums. A poor family member is also exempted from income tax.

- the implementation of the Islamic financial system and thereby increasing business entities and new jobs;
- providing comprehensive support to small business entities and increasing their share in the gross domestic product from 54% to 65-70%;
- to increase the number of free economic zones in the region (currently 4 are operating) to 10 in order to increase economic stability. The effective use of existing economic opportunities and resources through the establishment of free economic zones, especially in the fields of education, medicine, logistics, service provision.

Conclusion. It should be noted that poverty reduction is one of the most important issues in the current world economic and financial problems. Among them, effective measures to reduce poverty in Tashkent region were implemented, priority directions aimed at reducing it were developed and its improvement was aimed at the goal.

REFERENCES

1. Abduxamitovna, N. A., Maidanovich, K. N., Xusanovich, S. S., Rajabovna, S. S., & Qizi, X. G. A. (2019). The main problems of youth employment in Uzbekistan and their solution. *European science review*, (3-4), 12-14.
2. Каракулов, Н. М., Абдуллаев, И. Х., Матназаров, А. Р. (2022). Трактовка понятия бедности в различных странах и вопросы современного её состояния в Узбекистане: the interpretation of the concept of poverty in various countries and the issues of its current state in Uzbekistan. *Молодой специалист*, 1(2), 96-102.
3. Xatamovich, A. I., & Maidanovich, K. N. (2022). Climate Change and Its Impact on Increasing Poverty. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(12), 485-493.
4. Kambag'allik rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar. O'zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish yo'llari Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax, 2023 42-48 betlar
5. Karakulov, N. M., Amanbayeva, Z. A., Sultanova, N. B., & Xidirov, M. S. (2019). Development of tourism in Uzbekistan. *European science review*, 1(1-2), 13-15.
6. Abduxamitovna, N. A., Maidanovich, K. N., Xusanovich, S. S., Rajabovna, S. S., & Qizi, X. G. A. (2019). The main problems of youth employment in Uzbekistan and their solution. *European science review*, (3-4), 12-14.
7. Maidanovich, K. N., Abduxamitovna, N. A., Eshmatovna, U. G., Qizi, E. N. N., & Ug'li, S. B. F. (2023). Place and Role of the Urtachirchik District in the Development of the Economy of the Tashkent Region. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10(3), 214-220.
8. Maidanovich, K. N., Xamrayevich, S. U., Jumaqulovich, R. A., Eshmatovna, U. G., & Qizi, Z. S. S. (2023). The Organization of Activities in the Agro-Industrial Complex of Urtachirchik District. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10(12), 32-38.
9. Maidanovich, Karakulov Nurbol, et al. "The Organization of Activities in the Agro-Industrial Complex of Urtachirchik District." *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding* 10.12 (2023): 32-38.
10. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/19/poverty/>



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIK YILLARIDA TEMIR
YO‘LLARDAGI TRANSPORT INSHOOTLARI QURILISHINING RIVOJLANISH
TARIXI VA ISTIQBOLDAGI TENDENSIYALARI**

Shermuxamedov Ulug‘bek Zabixullayevich

t.f.d., professor, Toshkent davlat transport universiteti
ulugbekjuve@mail.ru

Kuznetsova Inna Olegovna

t.f.n., dotsent, Peterburg davlat temir yo‘llar universiteti
i_kuznetsova@mail.ru

Ramazonov Lazizxon Xojiakbar o‘g‘li

talaba, Toshkent davlat transport universiteti
ramazonovlazizxon@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida temir yo‘llardagi transport inshootlari qurilishining rivojlanish tarixi va istiqboldagi tendensiyalari bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Navoiy-Uchquduq-Nukus temir yo‘li, Toshg‘uzor-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘l liniyasi, Angren-Pop temir yo‘li, Qamchiq tunneli, Toshkent yer usti metropoliteni va Yangi Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘li va undagi inshootlar haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘prik, yo‘lo‘tkazgich, Angren-Pop temir yo‘li, Qamchiq tunneli, Toshg‘uzor-Boysun-qumqo‘rg‘on temir yo‘l liniyasi, Buxoro-Miskin temir yo‘li, sun‘iy inshoot, temir yo‘l liniyasi

**ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА ТРАНСПОРТНЫХ ОБЪЕКТОВ НА
ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГАХ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И
ТЕНДЕНЦИИ НА БУДУЩЕЕ**

Шермухамедов Улугбек Забихуллович.

д.т.н., профессор, Ташкентский государственный транспортный университет
ulugbekjuve@mail.ru

Кузнецова Ина Олеговна

к.т.н., доцент, Петербургский государственный университет путей сообщения
i_kuznetsova@mail.ru

Рамаонов Лазизхон Ходжакбар угли.

студент, Ташкентский государственный транспортный университет
ramazonovlazizxon@gmail.com

Аннотация: Представленная статья содержит аналитическую информацию о развитии строительства транспортных объектов железных дорог Узбекистана в годы независимости и о тенденциях их развития в



будущем. Рассмотрены железнодорожные линии Наманган-Учкудук-Нукус, Тошгузар-Бойсун-Кумкурбан, Ангрен-Поп, Камчикский тоннель, Ташкентский метрополитен и новая железная дорога Китай-Кыргызстан-Узбекистан, а также высказаны мнения и соображения по поводу их инфраструктуры.

Ключевые слова: Пропускная способность железная дорога Ангрен-Поп Камчикский тоннель железнодорожная линия Тошгузар-Бойсун-Кумкурбан железная дорога Бухара-Мискин искусственное сооружение железнодорожная линия.

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT AND FUTURE TRENDS OF RAILWAY TRANSPORT INFRASTRUCTURE CONSTRUCTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Shermuxeimedov Ulug'bek Zabixullayevich

doctor of technical sciences, professor, Tashkent state transport university

ulugbekjuve@mail.ru

Kuznetsova Inna Olegovna

PhD, Associate Professor, Emperor Alexander I St. Petersburg State Transport University

i_kuznetsova@mail.ru

Ramazonov Lazizxon Khodiakbarovich

student, Tashkent state transport university

ramazonovlazizxon@gmail.com

Abstract: This article provides analytical information on the history of development and future trends in the construction of transport facilities on railways during the years of independence of the Republic of Uzbekistan. Opinions and comments were expressed about the Navoi-Uchkuduk-Nukus railway, the Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway line, the Angren-Pap railway, the Kamchik tunnel, the Tashkent elevated metro, and the New China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway and its structures.

Key words: bridge, overpass, Angren-Pop railway, Kamchik tunnel, Tashguzar-Boysun-Kumkurgan railway line, Bukhara-Miskin railway, artificial structure, railway line

Kirish. O'zbekiston dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmagan (dengizga chiqish imkoni yo'q) davlatlardan biri hisoblanadi. Bu holat transport infratuzilmasini rivojlantirish va xalqaro savdoda qo'shimcha qiyinchiliklar yaratadi. Shu sababli, O'zbekiston o'z tovarlarini jahon bozorlariga yetkazish uchun qo'shni davlatlar orqali "transport yo'laklari" va "portlarga chiqish strategiyalari" ustida ishlamoqda.

Ma'lumki Respublikamiz O'rta Osiyo davlatlari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda Afg'oniston bilan chegaralangan Respublikamizning asosiy hududlari quruqlikdan iborat bo'lib, bu hududdan o'tuvchi Sirdaryo va Amudaryo ikkalasi ham Orol dengiziga quyiladi. Hududning chegarasi ham daryolar ham hech biri okean bilan bog'lanmagan. Aniqroq qilib aytganda, dunyo ummonlari portlarga chiqish uchun bir yoki bir necha qo'shni



davlatlar hududlaridan o'tishda albatta temir yo'ldan foydalanish iqtisodiy qulay transport hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, transport sohasini mustaqil rivojlantirish maqsadida 1994-yil 7-noyabrda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. Bu qaror mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va transport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan edi. Temir yo'l infratuzilmasining muhim qismi – bu sun'iy inshootlardir. Sun'iy inshootlarga ko'priklar, tonnellar va quvurlar kiradi. Bu inshootlar temir yo'l transportining samaradorligi, xavfsizligi va xizmat muddatini oshirishda katta rol o'ynaydi. **Asosiy qism.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida bajarilgan asosiy transport inshootlari qurilishlari tarixi va istiqboldagi tendensiyalari keltirilgan. Bunda, mamlakatimiz iqtisodiyotining qon tomiri hisoblangan temir yo'llardagi transport inshootlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.

Navoiy-Uchquduq-Nukus temir yo'li. Amudaryo ustidan o'tgan ushbu ko'priknin uzunligi taxminan 681 metrni tashkil etadi, uning qurilishi 1995-yilda boshlangan va 2001-yilda tugatilgan. Temir yo'l Qizilqum cho'li orqali o'tadi, ushbu yo'l orqali yuk tashish masofasi kamayib, bunda transport xarajatlari kamaydi. Navoiy-Uchquduq-Nukus temir yo'li Navoiy shahridan boshlanib, Uchquduq va Sulton Uvays tog'lari orqali Nukus shahrigacha cho'ziladi, ya'ni mamlakatning markaziy va g'arbiy hududlarini ishonchli transport yo'li bilan bog'laydi. Mamlakat ichidagi transport yo'llarini rivojlantirish orqali tashqi tranzitga bog'liqlikni kamaytirish imkonini yaratdi.

Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyasi. Ushbu temir yo'l liniyasi seysmik jihatdan faol zonada (7–8 ball) joylashgan bo'lib, 2003-yilda qurilishi boshlanib 2007-yil foydalanishga topshirilgan, uzunligi 223 km. Yo'l Hisor tizmasining janubi-g'arbiy qismi orqali o'tadi. Shu sababli yo'l qurilishida zilzilaga chidamli muhandislik inshootlari, ya'ni 37 ta ko'prik, galereya va tunnel kabi sun'iy inshootlar barpo etilgan. Ushbu liniyada mahalliy olimlarimiz va yaponiyalik mutaxassislar bilan birgalikda 5 ta metall ko'prik barpo etilgan, o'ziga xos jihati shundaki, seysmik hududda joylashgan 1 ta metall ko'prik inshootining tayanchi va oraliqlari metall konstruksiyalardan qurilgan.



1-rasm. Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'l liniyasidagi ko'priklar

Angren-Pop temir yo'li. Farg'ona vodiysini O'zbekistonning boshqa hududlari bilan bog'lash va transport tizimini mustahkamlash maqsadida qurilgan. Angren-Pop temir yo'li 2013-yilda boshlangan va 2016-yilning iyun oyida tugatilgan, uzunligi – 123 km. Loyiha O'zbekiston

Temir Yo'llari tomonidan Xitoy va boshqa xalqaro moliya institutlari ko'magida amalga oshirilgan. Ushbu loyiha doirasida 285 ta sun'iy inshoot va suv o'tkazish quvurlari, 22 ta ko'priklar, 6 ta temir yo'l stansiyasi va 2 ta vokzal qurilgan.

Angren–Pop liniyasi Qurama tizmasi orqali o'tadi, bu esa murakkab geologik sharoitlarni keltirib chiqaradi. Yo'l asosan tog'li hudud orqali o'tadi, balandlik 1,500–2,000 metr gacha yetadi. Tik daralar va jarliklar bo'lishi sababli, qurilish davomida ko'priklar, viaduklar va kesmalar ishlatilgan.

Yo'lning eng murakkab qismi Qamchiq dovoni orqali o'tadi va bunda 19.2km uzunlikdagi tunnel inshooti qurilgan (2-rasm). Qamchiq tonneli China Railway Tunnel Group (Xitoy) quruvchi kompaniya tomonidan qurilgan.



2-rasm. Angren–Pop liniyasi

Qamchiq tonneli – Markaziy Osiyodagi eng uzun temir yo'l tonneli hisoblanib, uzunligi 19,2 km, kengligi 10,7 metr, balandligi 6,5 metrni tashkil etadi. Dovonning balandligi: 2 200 metr. Tunnel 9 balli zilzilalarga bardosh bera oladigan qilib loyihalashtirilgan. Yer osti suvlari kuchli bo'lgani uchun maxsus drenaj tizimi barpo etilgan. Qurilishda zilzilaga chidamli beton va maxsus metall konstruksiyalar foydalanilgan. Tonnelda avariya holatlariga qarshi shamollatish tizimi, yong'inga qarshi tizim va xavfsizlik chiqish yo'laklari o'rnatilgan.

Qamchiq tunnelining ahamiyati shundan iboratki, Farg'ona vodiysining Toshkent bilan bevosita temir yo'l orqali bog'lanishiga imkon yaratdi. Oldin Tojikiston hududidan o'tishga majbur bo'lgan yuk va yo'lovchi tashish tizimi to'g'ridan-to'g'ri yo'l orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Transport xarajatlari va vaqt tejaldi, ilgari avtomobil yo'llari orqali yuk tashish uzoq vaqt va xavfli bo'lgan (3-rasm). Qamchiq tonneli O'zbekistonning eng muhim muhandislik yutuqlaridan biri hisoblanadi va mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqda.



3-rasm. Qamchiq dovonidagi 19.2 km uzunlikdagi tunnel inshooti

Toshkent yer usti metropoliteni

Toshkent yer usti metropoliteni—Toshkent shahrida 2020-yilda ishga tushirilgan metro tarmog‘ining bir qismi bo‘lib, u “Sirg‘ali” va “Do‘stlik-2” yo‘nalishlaridan iborat. Bu liniyalar an‘anaviy yer osti metropolitenidan farqli o‘laroq, estakadalar ustida barpo etilgan.

Bu liniya 2020-yil ekspluatatsiyaga topshirilgan bo‘lib, umumiy uzunligi 18,4 km, bekatlar soni 15 ta. Liniyalar: Do‘stlik-2 yo‘nalishi (Yangi Sergeli yo‘nalishi) – 5 ta bekat, uzunligi 7,1 km. Sirg‘ali yo‘nalishi – 7 ta bekat, uzunligi 12 km.



4-rasm. Toshkent yer usti metropoliteni



Ushbu metro tarmog'i Toshkent shahridagi tirbandlikni kamaytirish va transport tizimini yaxshilash uchun barpo etilgan. Kelajakda yangi yo'nalishlar qo'shilishi rejalashtirilgan.

Yangi Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li va undagi inshootlar

“Yangi Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston” temir yo'li – bu uchta davlatni bog'lovchi yangi xalqaro temir yo'l loyihasi bo'lib, Markaziy Osiyodagi transport aloqalarini kengaytirish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Loyihaning asosiy maqsadlari va ahamiyati:

1. Transport aloqalarini yaxshilash: Ushbu temir yo'l Xitoydan Qirg'iziston va O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri yuk tashishni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu, o'z navbatida, uchta mamlakat o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi.

2. Xalqaro savdoni rag'batlantirish: Yangi temir yo'l orqali Xitoyning keng savdo tarmog'ini Markaziy Osiyo mamlakatlariga olib kirish imkoniyati tug'iladi. Xitoydan tashqi savdo yuklarini Markaziy Osiyo va O'zbekiston orqali boshqa mamlakatlarga yo'naltirish uchun qulay va arzon transport yo'llari yaratadi.

3. Mintaqaviy integratsiya: Ushbu temir yo'l loyiha Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi va mintaq bo'yicha transport tarmoqlarini integratsiya qiladi.

4. Loyiha iqtisodiy samaralari: Yangi temir yo'l loyihasi ushbu mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi. Bu nafaqat yuk tashishni engillashtiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, transport infratuzilmasini yaxshilashga ham yordam beradi.

Xulosa. “Yangi Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston” temir yo'l loyihasi orqali Markaziy Osiyo mintaqasida yangi transport infratuzilmasi yaratilib, iqtisodiy aloqalar kuchayishi va savdoning o'sishiga hissa qo'shadi. Temir yo'l orqali Xitoy, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasida savdo hajmi ortadi, yangi ish o'rinlari yaratilib, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi.

Loyihani amalga oshirish uchun temir yo'l qurilishi va yangilanishi kerak. Bu davlatlar o'rtasida hamkorlik va moliyaviy resurslar ajratilishi talab qilinadi.

Yangi temir yo'lning qurilishi va ishlashida ekologik xavfsizlikka e'tibor qaratish, shuningdek, transport tizimlarining xavfsizligi va barqarorligini ta'minlaydi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salixanov S.S. Transport inshootlarini loyihalash va qurish. – Toshkent, I-tom. – 2018 y.
2. Salixanov S.S. Transport inshootlarini loyihalash va qurish. – Toshkent, II-tom. – 2018 y.
3. У.З. Шермухамедов, М.А. Абдухатова. Современное состояние и перспективы проектирования и строительства городских транспортных сооружений республики Узбекистан // Журнал “Путевой навигатор”, Санкт-Петербург, № 36-37. 2018. с. 24-28.



**YUKLASH UCHUN YETKAZIB BERISHDA YUK VAGONLARINI VAGONLAR
PARKINI BOSHQARISHNING UMUMIY TAMOIYILLARI**

Jumayev Sherzod Bahrom o'g'li
t.f.n., PhD, Toshkent davlat transport universiteti

Madatov Ilxomjon Mexriddin o'g'li
magistrant, Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya Mazkur maqolada temir yo'l transportida yuk tashish tizimining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Yuk tashishda xususiy vagonlardan foydalanish, ularning ekspluatatsion holatini yaxshilash va tashish jarayonlarini optimallashtirish yo'llarini tahlil qilingan. Xususiy yuk vagonlarining temir yo'l tarmog'ida ishlatilishi, ularni samarali boshqarish va tartibga solish mexanizmlari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Temir yo'l transporti, yuk tashish, xususiy yuk vagonlari, ekspluatatsiya, logistika, transport tizimi, tashish jarayonlari, modernizatsiya.

**АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНЫХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ ПО УПРАВЛЕНИЮ ПАРКОМ
ВАГОНОВ**

Жумаев Шерзод Бахром угли
к.т.н., PhD, Ташкентский государственный транспортный университет

Мадатов Илхом Мехриддин угли
магистрант, Ташкентский государственный транспортный университет

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы, связанные с повышением эффективности системы железнодорожных грузовых перевозок. Проанализированы вопросы использования частных вагонов при перевозке грузов, пути улучшения их эксплуатационного состояния, а также пути оптимизации перевозочных процессов. Будут рассмотрены вопросы использования частных грузовых вагонов на сети железных дорог, а также механизмы эффективного управления и регулирования ими.

Ключевые слова: Железнодорожный транспорт, грузовые перевозки, частные грузовые вагоны, эксплуатация, логистика, транспортная система, процессы перевозок, модернизация.

**ANALYSIS OF FOREIGN EXPERIMENTS ON THE MANAGEMENT OF THE FLEET
OF WAGONS**

Jumaev Sherzod Bahrom ugli
c.t.s., PhD, Tashkent State transport University

Madatov Ilkhom Mekhriddin ugli
Master student, Tashkent State Transport University

Annotation: This article discusses the issues of increasing the efficiency of the freight transportation system in railway transport. The use of private wagons in freight transportation, ways to improve their operational condition and optimize transportation processes are analyzed. The use of private freight wagons on the railway network, mechanisms for their effective management and regulation are discussed.


Key words: Railway transport, freight transportation, private freight cars, operation, logistics, transport system, transportation processes, modernization.

Yuk vagonlari parkini boshqarishda asosiy nazorat va boshqaruv harakatlari ularning bo'sh holatda bo'lganda qo'llaniladi. Bunda bo'sh vagon oqimlarining kelib chiqish va so'nish punktlari, shuningdek, ushbu jarayon bilan bog'liq amallar ro'yxati mavjud.

Bo'sh vagonlar parkini kelib chiqishining quyidagi nuqtalari mavjud:

- yuk tushirilgandan so'ng bo'shagan vagonlar;
- boshqa davlatlarning temir yo'llaridan bo'sh holatda keltirilgan vagonlar;
- ta'mirdan va yuklashga tayyorgarlikdan chiqqan vagonlar;
- joriy sutka rejasida ishlatilmagan vagonlar ishchi parki;
- ishchi bo'lmagan parkdan chiqayotgan vagonlar (zahiradagi, ta'mirlashdagi, konservatsiyadagi va h.k.).

Bo'sh vagonlar parkini boshqarish – bu murakkab texnologik jarayon bo'lib, uning samaradorligi turli holatlardagi obyektlar uchun boshqaruv qarorlarining o'z vaqtida va to'g'ri qabul qilinishiga bog'liq (1-rasm).



1-rasm. Bo'sh vagonlar harakati diagrammasi



Bo'sh vagonlarni boshqarish jarayonining asosiy vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- tashish rejasini yuklash zaxiralari bilan ta'minlash;
- harakat tarkibidan, tashuvchi infratuzilmasidan, umumiy foydalanilmaydigan yo'llardan va yuk frontlaridan samarali foydalanish.

Shu bilan birga, bo'sh vagon parki ishining foydalanish ko'rsatkichlariga quyidagi jarayonlar ta'sir qiladi:

- bo'sh vagonni yuklash, ta'mirlash, tayyorgarlik ko'rish va to'xtash punktlariga yo'naltirish;

- bo'sh vagonlarni yuklash, ta'mirlash, tayyorgarlik ko'rish va to'xtash joylariga yetkazib berishning tezkor rejalarini monitoring qilish va uning natijalariga ko'ra tuzatish kiritish;

- iqtisodiy maqsadga muvofiq bo'lgan taqdirda vagonlarni ijaraga olish va ularni ijaraga berish;

- vagonlarning texnik holatini nazorat qilish va ularning joriy va rejadan tashqari ta'mirlarini tashkil qilish;

- operatorning roziligisiz shartnoma shartlariga ko'ra tashuvchi tomonidan yuborilgan bo'sh xususiy vagonlarni to'xtash stansiyalarida yoki ro'yxatga olingan joylarda to'xtashini tashkil qilish.

Vagonlar oqimi nomutunosibligi sharoitida yilning ma'lum bir kunlarida PTRga kiritilgan terma-uchastka poyezdlari o'zining texnik-iqtisodiy samarasizligini ko'rsatmoqda. Chunki, "O'TY" AJning PTRga muvofiq uchastka poyezdlarini istisno holatlarda poyezdlar tarkibidagi vagonlarning me'yoriy sonidan bir "fizik" vagongacha yoki tarkibning me'yoriy og'irligidan 90 tonnagacha kamaytirib tuzilishiga ruxsat etiladi. Demak, "O'TY" AJda poyezd tuzish ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash uchun poyezdlar tarkibidagi vagonlarning me'yoriy sonidan texnik-iqtisodiy samarador miqdorga o'zgartirib (kamaytirib yoki ko'paytirib) jo'natishning me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va ularni PTRga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Texnik stansiyalarda tuziladigan poyezdlar soni cheklanganligi sharoitida poyezdlarni tortishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari yuk poyezdlarini vagonlarning me'yoriy sonidan kamaytirib jo'natish texnologiyasi katta samara berishi mumkinligini ko'rsatdi ishda yuk tashish masofasi qisqa va sutkalik vagonlar oqimi kichik bo'lganda yuk poyezdi tarkibidagi vagonlar sonini 17% gacha kamaytirish mumkinligi bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Qisqa tarkibli yuk poyezdlari harakatini tashkil etish yuk poyezdlari sonining oshishiga olib keladi. Bular, o'z navbatida temir yo'l uchastkasining o'tkazish qobiliyatini cheklaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda terma-uchastka poyezdlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bular, o'z navbatida, ish hajmini hisobga olgan holda axborot texnologiyalari asosida temir yo'l uchastkalaridagi mahalliy vagonlar oqimini ratsional tashkil etish uchun terma, uchastka va terma-uchastka poyezdlari harakatini tezkor rejalashtirish texnologiyasini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Vagonlar oqimini tashkil etish transport jarayonlari texnologiyalarini takomillashtirishga doir mamlakatimiz va xorijda bajarilgan ilmiy ishlar tahlili bugungi kunda temir yo'l transportida axborot texnologiyalari asosida vagonlar oqimini tashkil etish tizimi yetarli darajada samaradorlik bilan tashkil etilmayotganligini ko'rsatgan.



2.1-jadval

Vagon turlari hamda MTU UKlar kesimida umumiy vagonlar ishchi parki tahlili

	Jami	“Toshkent” MTU UK	“Qo‘qon” MTU UK	“Buxoro” MTU UK	“Qo‘ng‘irot” MTU UK	“Қарши” MTU UK	“Termiz” MTU UK
Yopiq vagon	5417	1934	1021	919	301	512	730
Platforma	746	419	61	113	46	70	37
Yarim ochiq vagon	6384	3174	760	1348	454	330	318
Sisterna	6203	2132	815	2039	141	680	396
Refrijerator	39	33	0	6	0	0	0
Boshqa turdagi vagonlar:	8751	4436	835	2342	657	289	192
Sementovoz	1831	451	149	774	298	93	66
Zernovoz	2208	1297	181	383	142	149	56
Fiting	2404	1865	292	181	27	30	9
Mineralovoz	192	18	54	114	6		
Transportyor	7	6		1			
Umumiy	27540	12128	3492	6767	1599	1881	1673

2.2-jadval

Vagon turlari hamda MTU UKlar kesimida yukli vagonlar ishchi parki tahlili

	Jami	“Toshkent” MTU UK	“Qo‘qon” MTU UK	“Buxoro” MTU UK	“Qo‘ng‘irot” MTU UK	“Qarshi” MTU UK	“Termiz” MTU UK
Yopiq vagon	2086	983	150	320	130	158	345
Platforma	295	177	28	20	18	31	21
Yarim ochiq vagon	2666	1484	298	534	205	98	47
Sisterna	2289	1104	261	459	50	297	118



Boshqa turdagi vagonlar:	2648	1478	210	621	212	69	58
Sementovoz	306	55	20	135	38	45	13
Zernovoz	1000	702	73	117	77	11	20
Fiting	659	510	52	76	1	11	9
Mineralovoz	10	4		6			
Transportyor	1	1					
Umumiy yukli vagonlar	9984	5226	947	1954	615	653	589

2.3-jadval

Vagon turlari hamda MTU UKlar kesimida bo'sh vagonlar ishchi parki tahlili

	Jami	“Toshkent” MTU UK	“Qo‘qon” MTU UK	“Buxoro” MTU UK	“Qo‘ng‘irot” MTU UK	“Qarshi” MTU UK	“Termiz” MTU UK
Yopiq vagon	3331	951	871	599	171	354	385
Platforma	451	242	33	93	28	39	16
Yarim ochiq vagon	3718	1690	462	814	249	232	271
Sisterna	3914	1028	554	1580	91	383	278
Refrijerator	39	33		6			
Boshqa turdagi vagonlar:	6103	2958	625	1721	445	220	134
Sementovoz	1525	396	129	639	260	48	53
Zernovoz	1208	595	108	266	65	138	36
Fiting	1745	1355	240	105	26	19	
Mineralovoz	182	14	54	108	6		
Transportyor	6	5		1			
Umumiy bo'sh vagonlar	17556	6902	2545	4813	984	1228	1084



Mamlakatimizda axborot texnologiyalarini barcha sohaga kiritish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Jumladan, temir yo'l transportida hujjatlar aylanishini avtomatlashtirishga katta e'tibor qaratilayotganligi aniqlangan. Natijada "O'TY" AJda yuklarni tashish nomutanosiblik sharoitida vagonlar oqimini samarali tashkil etish bo'yicha kompleks yechimlarni izlash zaruratini asoslangan.

"O'TY" AJda mahalliy vagonlar oqimi harakatining sekinlashishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar Isikava sxemasi asosida aniqlangan va ular 4 ta guruhga birlashtirilib (texnik, texnologik, tabiiy va boshqaruv), tizimlashtirilgan. Natijada, texnologik va boshqaruv jarayoniga bog'liq omillarning mahalliy vagonlar oqimi harakatining sekinlashishiga ta'sirini kamaytirishga doir usullarni axborot texnologiyalar asosida takomillashtirish imkoni mavjudligi aniqlangan.

Temir yo'l transportida vagonlar oqimini tashkil etishda axborot texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Natijada, ko'p guruhli poyezdlarni tuzish va ular harakatini tashkil etish transport jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini jalb etish asosida temir yo'l uchastkalaridagi mahalliy vagonlar harakatini tezlashtirish tartiblarini belgilovchi algoritm va dasturiy ta'minotlarini yaratish zaruratini ko'rsatgan.

Tadqiqot ishida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi vagonlar ishchi parkining vagon turlari hamda Mintaqaviy temir yo'l uzeli Unitar korxonalari (MTU UK) kesimida ularning umumiy, yukli va bo'sh vagonlar soni tahlil qilindi (2.1 – 2.3-jadvallar). Ushbu tahlil ma'lumotlari 2024-yil mart oyi davrida ishlab chiqildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, hozirgi kunda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tasarrufidagi vagonlar ishchi parki jami 27 mingga yaqin, shundan 37 foizi yuklangan vagonlar, 63 foizi bo'sh vagonlar ulushiga to'g'ri kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хусаинов, Ф. И. Приватизация железных дорог в Великобритании: уроки для России [Текст] / Ф. И. Хусаинов. «Экономика железных дорог», 2011.– №9.– С. 83–90.
2. Хусаинов, Ф. И. Эволюция тарифного регулирования на железных дорогах США [Текст] / Ф. И. Хусаинов. Бюллетень транспортной информации, 2014. – №6. – С. 17–24.
3. Сабуров, М. Б. Метод и модели организации грузопотоков в условиях реформирования железнодорожного транспорта республики Узбекистан [Текст]: автореферат дис. ... канд. техн. наук: 2.9.4 / Мардонбек Баходирович Сабуров. СПб., 2023. – 18 с.



TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Xalmedova Lola Abdikadirovna

katta o'qituvchi, Toshkent transport texnikumi

xalmedovalola@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda axborot texnologiyalarini o'rni, dars mashg'lotlarida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali dars sifati va yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish, bundan tashqari ta'limda multimedia vositalarini afzalliklari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Axborot, kommunikatsiya, texnologiya, audio signal, video signal, multimedia, individual, kompyuter, informatika

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Халмедова Лола Абдикадировна

старший преподаватель, Ташкентский транспортный техникум

xalmedovalola@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается роль информационных технологий в образовании, использование информационных технологий на уроках для повышения качества уроков и повышения интереса молодежи к сфере ИТ, а также преимущества мультимедийных средств в образовании.

Ключевые слова: Информация, коммуникация, технология, аудиосигнал, видеосигнал, мультимедиа, индивидуум, компьютер, информатика

EFFECTIVENESS OF THE APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION

Halmedova Lola Abdikadirovna

senior teacher, Tashkent transport Technical School

xalmedovalola@gmail.com

Annotation: In the article the author analyzed the role of information technology in education, the quality of the lesson and the increasing interest of young people in IT through the use of information technology in classrooms, as well as the benefits of multimedia in education.

Key words: Information, Communication, Technology, audio signal, video signal, multimedia, individual, computer, informatics



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy

pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbqiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sigimli tashqi xotira, xajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi, "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va xar tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lim berish va kadrlarni qayta tayorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o'zi nima degan savol tug'ladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbqiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalarining 81-yildagi yalpi oboroti 4 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa 94-yil esa 16 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi kunda esa sotilayotgan har bir kompyuterni mul'timedia vositalarisiz tasavvur qilib bolmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng



qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi avvalambor ular unumdorligining nihoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni kursatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumli va vaqtdan yutish mumkun. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25- 30% oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika

ko'rinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.

Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

1) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

2) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

3) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

4) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi. Informatika va axborot texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'ektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri — axborot tizimlari nima, ular qanday o'rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo'lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Yevropada informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqarish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug'urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot tizimlari. Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lim, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi.

Kompyuterlarni ta'lim tizimida qo'llash g'oyasi ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lgan bo'lsada, ta'lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo'llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo'lgach to'liq ma'noda amaliyotga joriy etilib boshlandi. Multimedia vositalarini ta'limda qo'llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'limning gumanizasiyalashuvini ta'minlash;
- o'quv jarayonining samaradorligini oshirish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o'zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta'lim olish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo'llay olishi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi, mehnatga bo'lgan munosabati);
- ta'lim oluvchining kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;



- kompyuter vositalari va axborot elektron ta'lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta'lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta'limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
- ta'lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadrdimmatini tan olish;
- ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- mustaqil o'quv faoliyatini olib borish, bunda ta'lim oluvchi mustaqil o'qib va rivojlanib boradi;
- ta'lim oluvchilarda, o'zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish. Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'ptarmoqli, predmetga yo'naltirilgan multimediali o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma'lumotlar bazasi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilimlar bazasi, sun'iy intellekt tizimlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo'lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi. Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianting muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma'lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarni individual tarzda o'zgartirishi, natijalarini o'rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so'roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin. Lekin multimediadan foydalanishda bir qator jihatlarni e'tiborga olish muhim. Multimedida taqdim etilayotgan o'quv materiallari tushunish uchun qulay bo'lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi. Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi. Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo'llashda ham ta'lim strategiyasi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta'lim oluvchilarga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug'ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animasiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko'rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to'ldirgan holda zaruriy emosional darajani ta'minlab turishi mumkin. Multimedia vositalari har xil ta'lim yo'nalishlari (stillari) uyg'unligida qo'llanilishi va ta'lim olish hamda bilimlarni qabul qilishning turli ruhiy va yoshga doir xususiyatlariga ega bo'lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta'lim oluvchilar



bevosita o'qish orqali, ba'zilar esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko'rish orqali ta'lim olishni va bilimlarni o'zlashtirishni xush ko'radilar. Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo'lgan ta'lim oluvchiga noan'anaviy qulaylik tug'diradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta'lim oluvchilarda fonologik malakalar va o'qish malakalari o'sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi. Multimedia vositalari ta'lim berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo'lib, u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng ko'lamdagi ma'lumotlar massivini taqdim etish; ko'rgazmali va uyg'unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animasiyalar, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta'lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'grisida"gi F-4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekistan Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent oqshomi. 2020 yil, 25 yanvar. № 13 (14064).
3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy taxlil, qilish tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017
4. S.S.G'ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologivalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Akademik S.S. G'ulomovning unuimiy tahriri ostida. - T., «Sharq», 2000.
5. The pedagogy of Ihe Massive Oen Online Course: the UK view. Sian Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education A cad emy .2013.
6. www.lex.uz.
7. www.ziyonet.uz



**ПРИМЕНЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ
ПОЛИТИКИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА (НА
ПРИМЕРЕ АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ»)**

Саидназирханова Дилноза Саидакбаровна

магистрант, Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

